

SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA OTA OBRAZINING BADIY TALQINI

Jalolova Shabnam Jaxongir qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon adabiyoti dramaturgiyasiga salmoqli hissa qo'shgan, ingliz yozuvchisi Vilyam Shekspir tragediyalarida ota obrazi badiiy talqini; obrazning tragediya yakuniga bevosita ta'sir o'tkazgan- katalizator- tezlashtiruvchi obraz vazifasini bajarganini "*Hamlet*" va "*Romeo va Julyetta*" asrlari orqali ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Shekspir, tragediya, jahon adabiyoti, ota obrazi, Hamlet, Kapuletti, dramaturgiya, fojia, qirol arvohi.

Ota obrazi adabiyotda eng qadimgi va murakkab timsollardan biri hisoblanadi. U nafaqat oila boshlig'I sifatida, balki axloqiy me'yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va shaxsiy mas'uliyat timsoli sifatida ham namoyon bo'ladi. Jahon adabiyotida ota obrazi orqali mualliflar inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berishga harakat qilganlar. Jumladan, Vilyam Shekspir tragediyalari inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarning eng murakkab qatlamlarini ochib berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asrlarda ota obrazi muhim badiiy va falsafiy yukni o'z zimmasiga olgan timsollardan biri sifatida nomoyon bo'ladi. Ota nafaqat oila boshlig'I, balki hokimiyat, mas'uliyat, an'ana va axloqiy tanlov ramzi sifatida tasvirlanadi.

Shekspir tragediyalarida obrazlari ko'pincha ziddiyatli xarakterga ega bo'lib, ular orqali avlodlar o'rtasidagi qarama-qarshilik, ishonch va xiyonat; sevgi va burch o'rtasidagi murakkab munosabatlar yoritiladi. Yozuvchining "*Hamlet*" va "*Romeo va Julyetta*" asarlarini o'rganish davomida ota obrazining farzandlar taqdiriga ta'sirini ko'rish mumkin.

Hamlet tragediyasida ota obrazi bevosita sahnada faol harakat qilmasa-da, voqealar rivojiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Hamletning otasi-qirol arvohi- o'g'lining huzuriga kelishi va unga o'zi uchun qasos olish vazifasini yuklashi bu asarning muhim qismi hisoblanadi. Onasining qilmishidan g'azabda yurgan Hamletga bu aynan kerakli turtki bo'ladi. Ota obrazi bu yerda burch, adolat va vijdon ramzi sifatida talqin qilinadi. Hamlet va qirol arvohi o'rtasidagi mana bu dialogni eslang:

Arvoh: Xayr endi, alvido, meni unutma.

(Ketadi)

Hamlet: Ey zamiya, ey osmon! Yana kim tenglar?

Balki do'zax qulog'i! Chidab tur yurak!

Oyoqlarim rost turing, aslo bukilmang .

U dediki:-“ *Unutma*”- seni unutmoq?!

Modomiki, kallada yashar xotira-

Modomiki, esim bor, seni unutmam.

Aynan shu jummalarda ma'lum bo'ladiki , arvohning-otaning gaplari Hamlet uchun eng muhim omil uning harakatga keltiruvchi maqsadga ham aylangan. Bu uchrashuvni fojining asosiy sababi deb ham bo'lmaydi. Agar arvohning bu gapi bo'lmaganda asar oxiri boshqacha tugashi mumkin edi degan fikrga ham kelib bo'lmaydi.

Hamlet: Ha, ha, bir oy o'tmasdan!..

Tobut ketidan

Niobeya singari oh-fig'on tortib

Borganida oyoqqa kiygan boshmog'i

Hali ham butun...

Onam, onam, u xotin...yorab, ilohim,

Ongsiz hayvon er uvhun shuncha shoshilmas,

Holbuki er qilgani-badbaxt amakim

O'xshar marhum otamga, Geraklga men

Qay daraja o'xshasam... Voydod, vovaylo.

Bu misralardan ma'lum bo'ladiki, Hamletning qalbida otasining o'limidan so'ng onasi va amakisiga nisbatan sovuqlik allaqachon paydo bo'lgan. Shu sababdan ham bu uchrashuvni asosiy omil emas, ushbu syujetni kuchaytiruvchi-katalizator deyish mumkin.

“Romeo va Julyetta” asarida esa ota real va ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo’ladi. Julyettaning otasi-Kapuletti- qizining fojiasida o’zining qarori bilan muhim o’rin egallaydi. Garchi asar boshida u mehribon ota sifatida ko’ringan bo’lsada uning qarorlari Julyettaning shaxsiy xohish-istaklarini cheklab qo’yadi.

Juletta: Tiz cho‘kaman, yalinaman, mehribon ota,

Bir so’zgina aytishimga ijozat bering!

Kapuletti: Yashamagur, yaramas qiz, shallaqi ovsar!

Gap faqat bir: yo payshanba cherkov borasan,

Yoki mening ko’zlarimga ko’rinma aslo!

Javob berma, gap qaytarma! Tiygin tilingni!

(Ketadi)

Bu yerda mehribon ota emas, bir oilaning boshlig’i, qattiqqul Kapuletti obrazi yuzaga chiqadi. Agar Kapuletting qaysarligi bo’lmaganda Julietta Romeo bilan birga bo’lard va asar bu tarzda fojia bilan tugamas edi degan fikrga ham kelish ham o’rinli emas. Asarda fojining asosiy sababi bu ijtimoiy konflikt- ikki oilaning dushmanligi hisoblanadi, ota obrazi esa yuqoridagidek yordamchi kuch sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib Vilyam Shekspir tragediyalarida ota obrazi murakkab va ko’p qirrali badiiy timsol sifatida namoyon bo’ladi. U bir vaqtning o’zida mehr, mas’uliyat, hokimiyat va nazorat kabi tushunchalarni o’zida mujassamlashtiradi. Ota obrazi orqali muallif nafaqat oilaviy munosabatlarni, balki jamiyatdagi axloqiy me’yorlar va ijtimoiy tartibni ham yoritadi. Vilyam Shekspir o’z asarlarida ota obrazini turli shakllarda berib, uning inson hayotidagi o’rni va ahamiyatini chuqur ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shekspir. “Rameo va Julyetta”-Toshkent. G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1981

2. Shekspir. “Hamlet”-Toahkent. G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1983

3. Uz.wikipedia.org